

XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Kurbanova Shohista Komiljonovna

Samarqand davlat chet tillar instituti 2-bosqich talabasi

shokhistakurbanova05@gmail.com (+998) 990631803

Annotatsiya: Bilamizki, bugungi kunda chet tillarni o'rganish bizga ko'pgina imkoniyat eshiklarini ochadi va dunyo bo'ylab aylanish, turli madaniyatlarni o'rganishga katta yordam beradi. Ushbu maqolada biz zamonaviy texnologiyalar chet tillarini o'rganish jarayonini o'zgartirishda, o'quvchilarga ularning tilga xos bilimlarini oshirish uchun innovatsion va qiziqarli imkoniyatlarni taqdim etishda o'ynaydigan chuqr rolini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: zamonaviy texnologiya, AKT, interfaol metodlar, pedagogika, chet tillar, multimedia, innovatsion texnologiyalar, gadgetlar.

Kirish: Bugungi kunda chet tili faqat ma'lum bir millat madaniyatining bir qismi emas, balki bu ham muvaffaqiyat kaliti va ham talabalarning kelajakdagi kasbining muvaffaqiyatlari manbayidir. O'qituvchining chet tilini o'qitishning eng yangi usullarini, o'qitishning maxsus texnik usullarini bilishi talabalarning bilim darjasini, talab va qiziqishlariga mos ravishda u yoki bu o'qitish usullarini optimal tanlashda muhim ahamiyatga ega. Zero, o'qitish metodikasi oddiy emas, ulardan chet tili darslaridan oqilona va asosli foydalanish o'qituvchidan ijodiy yondashishni talab qiladi, chunki "pedagogika bir vaqtning o'zida fan va san'atdir". Shuning uchun o'qitish usullarini tanlashga yondashuv o'qituvchining ijodiga asoslanishi kerak.

Asosiy qism: Hozirgi kunda ko'pchilik o'quv yurtlarda an'anaviy dars metodlaridan farqli o'laroq AKT dan foydalanilgan holda interfaol metodlar orqali dars jarayonlarini tashkillashtirish joriy etilgan. Bu esa o'z navbatida xorijiy tillarni o'zlashtirishning zamonaviy usullaridan desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuni aytish mumkinki, hozirgi texnologiyalar asrida xohlagan chet tillarini AKT orqali o'zlashtirish hamda o'rgatish foydali usullardan biridir.

- Turli multimedialar orqali video, multfilm yoki audiodarslar ko'rish va eshitish mumkin.
- Chet tilidagi turli xil dasturlarni ko'rish orqali o'rganish mumkin.
- CD pleyerlardan ham turli xorijiy musiqalarni tinglab chet tili bilimini yoki talaffuzni yaxshilash mumkin. Shu kabi texnik vositalardan foydalaniib chet tili o'rganuvchisi o'quv jarayonini efektiv va qiziq o'tishiga imkon yaratib beradi. Ta'lim texnologiyalari deganda, albatta, o'quv jarayonida turli interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tushuniladi. Shu bilan birga, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni olib kirish yo'li bilan ta'lim sifati va unumdoorligini yaxshilashimiz mumkin. Misol qilib aytadigan bo'lsak, dars jarayonida o'qituvchi yoki talaba faqat qo'llanma va darsliklardan emas, balki ham ko'rsa va ham eshitsa bo'ladigan texnika, ya'ni notebookdan foydalaniib dars o'tilsa, dars jarayoni zerikarli bo'lmaydi va bu o'rganuvchini ham o'sha tilni o'zlashtirishga ruhlantiradi. Xalqimizda: "Til bilgan- el biladi" degan maqol bor. Balki, biz yoshlardan chet tillarni o'rganish uchun talablarning qo'yilganligi shuning uchundir. Shu bilan birga, Forobiy, Qoshg'ariylar kabi yetuk ajdodlarimizdan ko'p tillarni bilish va o'rganish bizga meros. Qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, xorijiy tillarni o'rganib vatanimizning jahon hamjamiyatida o'z o'rnini topishi va uni yana ham kengroq tatbiq etish uchun chet tillarni bilish

dolzarb mavzu hisoblanadi. Vatanimizni jahon miqyosida o'z o'rniiga ega bo'lishi uchun ,albatta, yoshlar va ular o'rganayotgan chet tillarning ahamiyati katta.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hozirda hayotimizni turli xil texnik vositalar, gadjetlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Bu rivojlanib borayotgan zamonamizda xorijiy tillarni o'rganish jarayonini qiziqarli va juda samarali usulda o'rganishni tatbiq etish uchun ushbu vositalardan foydalanishimiz, ta'lim va texnologiyalarni hamohanglikda olib borish juda ham ijobiy efekt berishiga aminman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Estling Vannerstal, Maria. 2009. To learn English on the Internet.
2. J.Jalolov „Chet til o'qitish metodikasi”, Toshkent-2012
3. oglu Tojiboyev, I. O. (2021). On the use of modern pedagogical technologies and general grammar in the teaching of English. Science and Education, 2(8), 718-720.
4. Odil o'g'li, T. I. (2021). METHODOLOGY OF TEACHING ENGLISH. World Bulletin of Social Sciences, 1(1), 23-25.

